

# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

## *ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**No 7**

**2025**  
**IYUL**



## Millyy nashrlar

**OAK:** <https://oak.uz/pages/4802>

*05.00.00 - Texnika fanlari*

## **08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar**



# **muhandislik & iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbanov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Botirali Roxataliyevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyedtinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatalish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

Yashil ish o'rirlari va ekologik ta'lif: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar .....	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardonha	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tov lash holatlaringin informatsion assimetriyaga ta'siri .....	16
Babanzarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budjet mablag'lardan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati .....	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi .....	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lif muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lif muassasalari o'tasidagi hamkorlik misolida) .....	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash .....	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Optimizatsiya biznes-protsessov i modernizatsiya занятости в условиях цифровизации .....	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni .....	54
Otoboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish .....	61
Annaklichev Saxy Saparmuxamedovich	
Aльтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования .....	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati .....	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memorlarning yetishmasligi .....	74
Nabiiev Hamidjon Mirzo o'g'li	
General Concept and Principles of Quality Management System .....	78
Atamirzayev Nodirbek Bekmirzayevich	
Transformatsiya jarayonida tijorat banklarining kreditlash faoliyatini rivojlantirish .....	84
Absamatov Anvar Ergashovich	
Интегральный показатель отбора экспертов для принятия коллегиальных диагностических решений .....	94
Uraqov Shokir Ulashovich	
Korxona faoliyatini tahlil qilishda boshqaruv hisobining roli .....	100
Abdurasulov Xumoyun Jalil o'g'li, Axmedov Xasan Ruzibayevich	
Raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobini tashkil etish .....	107
Abdullayev Abdurauf	
Moliyaviy hisobotni transformatsiya qilish .....	112
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri .....	116
Samarqand davlat universiteti, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich	



Raqamli iqtisodiyotning turizm sohasidagi bandlik shakllariga ta'siri.....	120
<b>Rasulova Muxabbat Teshabayevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li</b>	
Xalqaro moliya-kredit instutlari bilan hamkorlikning xorij tajribasi.....	126
<b>Qosimov Bobur Sobirovich</b>	
Jahonda moliyaviy munosabatlar rivojlanishida korporativ tuzilmalar faoliyatining o'rni .....	131
<b>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</b>	
Iqtisodiyotning real sektor subyektlarining faoliyatini moliya-kredit mexanizmlari orqali rag'batlantirishning xalqaro tajribasi .....	136
<b>Mahmudov Nurali Komilovich</b>	
O'zbekiston sharoitida raqamli transformatsiyaning makroiqtisodiy indikatorlarga ta'siri .....	140
<b>Sanakulova Iroda, Kuldoshev Lazizjon Sharifovich</b>	
Sho'r suvni chuchuklashtirish uchun absorber sifatida foydalanilgan quyosh elementlari tuzilmasining tajriba sinov tahlillar .....	144
<b>Tursunov Muxamad Nishanovich, Sabirov Xabibullo, Axtamov Tohir Zuxriddinovich, Abriyev Shaxzod Akbar o'g'li, Bobomuratov Sardor Abdurasul o'g'li</b>	
Развитие банков в системе цифровых финансовых услуг в Республике Узбекистан.....	151
<b>Даденова Гульхан Кенесбаевна</b>	
Внедрение экологических стандартов в транспортной системе: проблемы и перспективы .....	156
<b>Абдурахманова М.Т.</b>	
Elektron o'quv kontenti orqali mustaqil ta'lim va tadqiqot faoliyatini rivojlantirish .....	162
<b>Ahunova Tamannoxon Zokir qizi</b>	
Raqamli transformatsiya sharoitida davlat va xususiy sektorda korporativ boshqaruvin strategiyasini yangilash: O'zbekiston modeli .....	167
<b>Tojialiyev Sherdorbek Elmurod o'g'li, Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li</b>	
Jismoniy shaxslar uchun aksiyalar bozoriga kirish strategiyalari va investitsiya imkoniyatlari: O'zbekiston va xalqaro tajriba tahlili .....	171
<b>Oraqov Bekzodbek Abdurayxon o'g'li</b>	
Energetika tarmog'ida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (mhxs) joriy etishning nazariy asoslari .....	176
<b>Uralov Temur Boxodir O'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlarini mablag'larini shakllanishi va nazorat qilinishi .....	181
<b>Xolbekov Ulug'bek Toshpulat o'g'li</b>	
Oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reyting ko'rsatkichlarini oshirishning strategik boshqaruvin mexanizmlari .....	185
<b>Mamajonova Muxlisaxon Muzaffar qizi</b>	
Economic Efficiency of Digital Twin and Bim Technologies in Construction Enterprises.....	189
<b>Nigmatjonova Nozima Ulmasjonovna</b>	
Uzumchilikka ixtisoslashgan xo'jaliklarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari .....	197
<b>Tursunov To'lqin Jo'raqulovich</b>	
Совершенствование проверки налогового аудита в Узбекистане .....	202
<b>Юсупов Мансур Расулович</b>	
Navoiy viloyatida mehnat resurslaridan foydalanishni ekonometrik modellashtirish usullari .....	207
<b>Hamroyev Anvar Ashurovich</b>	
Texnika fanining bugungi kunda o'rni va ahamiyati .....	214
<b>Ulasheva Shaxlo Tagayevna, Xujamurotova Mashxura G'ayrat qizi</b>	
Globalashuv sharoitida mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalari.....	219
<b>Nurmuradov Olmos Eshmuradovich</b>	
Banklarda xalqaro hisob-kitoblar hisobini takomillashtirish .....	226
<b>Uzaqova Gulmira Yuldashevna</b>	



Korxona mehnat unumdarligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar va ularning o'zaro bog'liqligi. (artel korxonasi misolida) .....	230
<b>Abdug'aniyev Ilyosbek Shavkatbek o'g'li</b>	
Gaz sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy jihatlari .....	238
<b>Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li</b>	
Namangan viloyatida investitsiya faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari .....	242
<b>Inamov Farxodjon Ikrom o'g'li</b>	
Matematicheskoe modelirovaniye kinematiki dvizheniya sharov razlichnogo rassmera v barabannix melynicax .....	246
<b>Akmal Jumanazarov</b>	
Vliyanie «zelennykh» investitsiy na ustoychivoe ekonomicheskoe razvitiye: teoretycheskie i prikladnye aspekty .....	253
<b>Isomov B. C.</b>	
Bozor xizmatlari ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirishning konseptual asoslarining shakllanish xususiyatlari .....	260
<b>Alimjanova Oydin Nodirovna</b>	
Korxonalar faoliyatida yashil marketing strategiyalarini qo'llash imkoniyatlari .....	266
<b>Rahmatov Dilshod Shermat o'g'li</b>	
Sanoatda raqamli egizak texnologiyalarining o'rni .....	271
<b>Ibragimov Sanjarbek Saljanovich</b>	
Qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishda xorijiy tajribalar va ularning ahamiyati .....	278
<b>Shixiyev Raxim Muhammedovich</b>	
Mamlakatda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishning amaliy jihatlari .....	285
<b>Raxmonov Lochin To'xtamishovich</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish strategiyalari .....	289
<b>Ismailov Alliyor Rashidovich</b>	



# AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA INNOVATSİYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH STRATEGIYALARI

**Ismailov Alliyor Rashidovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Innovatsion menejment" kafedrası

PhD dotsent

ORCID: 0009-0000-6148-342X

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish strategiyalari nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda innovatsiya boshqaruvi jarayonlarini optimallashtirish, yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etishda korporativ strategiyalarning ahamiyati hamda rahbariyat va aksiyadorlar ishtirokini muvofiqlashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Maqolada innovatsiyalarni boshqarishning asosiy modellari va usullari, ularning korporativ samaradorlikka ta'siri o'rGANILGAN. Shuningdek, korporativ innovatsiya strategiyalarini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar, raqobatbardoshlikni saqlash va bozor talablariga moslashish omillari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** aksiyadorlik jamiyati, innovatsiya jarayonlari, korporativ strategiyalar, innovatsiyalarni boshqarish, korporativ samaradorlik, raqobatbardoshlik, zamonaviy boshqaruvi modellari, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar, korporativ innovatsiya.

**Abstract:** This article provides a theoretical and practical analysis of strategies for effectively managing innovation processes in joint-stock companies. The study examines the optimization of innovation management, the importance of corporate strategies in introducing new products and technologies, as well as the coordination of management and shareholder participation. The article analyzes key models and methods of innovation management and their impact on corporate efficiency. It also highlights challenges in developing corporate innovation strategies, maintaining competitiveness, and adapting to market demands. The research results make it possible to develop practical recommendations for the effective management of innovation processes in joint-stock companies.

**Key words:** joint-stock company, innovation processes, corporate strategies, innovation management, corporate efficiency, competitiveness, modern management models, digital technologies, automated systems, corporate innovation.

**Аннотация:** В данной статье представлен теоретический и практический анализ стратегий эффективного управления инновационными процессами в акционерных обществах. В исследовании рассматриваются вопросы оптимизации управления инновациями, значение корпоративных стратегий при внедрении новых продуктов и технологий, а также координация участия руководства и акционеров. В статье анализируются основные модели и методы управления инновациями и их влияние на корпоративную эффективность. Также показаны трудности разработки корпоративных инновационных стратегий, сохранения конкурентоспособности и адаптации к рыночным требованиям. Результаты исследования позволяют выработать практические рекомендации по эффективному управлению инновационными процессами в акционерных обществах.

**Ключевые слова:** акционерное общество, инновационные процессы, корпоративные стратегии, управление инновациями, корпоративная эффективность, конкурентоспособность, современные модели управления, цифровые технологии, автоматизированные системы, корпоративные инновации.

## KIRISH

Hozirgi global raqobat muhiti va tez rivojlanayotgan texnologiyalar sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish barqaror rivojlanish va korporativ samaradorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Innovatsiya nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga, balki bozordagi raqobatdoshlikni oshirish, xarajatlarni optimallashtirish hamda aksiyadorlar va manfaatdor tomonlar ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.



Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiyalarni boshqarishda korporativ strategiyalar markaziy o'rinni egallab, rahbariyatning strategik qarashlari, korporativ madaniyat va boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligini talab etadi. Ular innovatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish, samaradorlikni oshirish, resurslarni taqsimlash va investitsiyalarni yo'naltirishni tizimli tarzda tashkil etishga imkon beradi.

Innovatsiyalarni boshqarishda zamonaliv korporativ modellar va usullar — strategik rejalashtirish, loyihalarni boshqarish, samaradorlikni baholash, resurslardan maqsadli foydalanish hamda monitoring va tahlil mexanizmlari qo'llanilishi muhimdir. Korporativ innovatsiya strategiyalari esa bozor talablari va texnologik rivojlanish tendensiyalariga mos ravishda doimiy takomillashtirib borilishi lozim.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarishda alohida o'r'in tutadi. Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlash vositalari, sun'iy intellekt va moliyaviy texnologiyalar qaror qabul qilish sifatini oshiradi. Shu bilan birga, moliyaviy xatarlar, kiberxavfsizlik, resurslar cheklanganligi va kadrlar salohiyatiga oid muammolar ham muhim omil hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini boshqarishning nazariy asoslari va amaliy jihatlari, korporativ strategiyalar, zamonaliv boshqaruv modellari hamda samaradorlikni ta'minlashga qaratilgan tavsiyalar tahlil qilinadi. Maqsad — innovatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali korporativ samaradorlik va raqobatbardoshlikni oshirishga yo'naltirilgan amaliy yo'nalishlar ishlab chiqishdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

R.N. Oktyabrevnaning fikriga ko'ra, hozirgi global iqtisodiyotda innovatsiya va texnologiyalar korxonalarning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillar sifatida strategik boshqaruvda muhim o'r'in tutadi. Ular samaradorlikni oshirish, xarajatlarni kamaytirish va bozordagi mavqeni mustahkamlash imkoniyatlarini yaratadi [1].

S.B. Makhmudov va A.R. Ismailovlarning ta'kidlashicha, strategik korporativ boshqaruv amaliyotlari aksiyadorlik jamiyatlarining kapital bozoridagi samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Aksiyadorlar qiymatini maksimallashtirish jarayoni uzoq muddatli rejalashtirish, resurslarni samarali taqsimlash va asosli qaror qabul qilishni o'z ichiga oladi [2].

S. Oksana va hamkorlari aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardosh salohiyatini davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlovchi strategik resurs sifatida baholab, ularning iqtisodiy barqarorligi va milliy iqtisodiyotdagagi faol ishtirokini muhim deb hisoblaydi [3].

Z. Duric va hamkorlaring tadqiqotlarida aksiyadorlik jamiyatlarida biznes natijalarini o'lchash, kuzatish va boshqarish jarayonida samaradorlikning eng muhim ko'satkichlari (Key Performance Indicators, KPI) asosida muammolarni hal etish mexanizmlari yoritilgan [4].

Z. Khrystyna va boshqalarning fikriga ko'ra, korxonalarning samarali innovatsion faoliyati va iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi innovatsion loyihalarni o'z vaqtida amalga oshirish, tashqi va ichki muhit talablariga javob berish hamda mavjud salohiyatni oshirish orqali uzoq muddatli istiqbolga erishishi mumkin. Bu esa mahalliy korxonalarda innovatsiya faoliyatini strategik boshqarishning ahamiyatini yanada kuchaytiradi [5].

D. Kuratko va hamkorlaring ta'kidlashicha, zamonaliv korporatsiyalar uchun yuqori samaradorlikni saqlab qolishning muhim shartlaridan biri korporativ innovatsiyani keng targ'ib etishdir. Biroq korporativ innovatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish ko'plab kompaniyalar uchun hanuz murakkab vazifa bo'lib, bu jarayon korporativ boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [6].

L. Rheaume va M. Gardonilar tadqiqotlarida innovatsiya bugungi kunda korxonalarning tirik qolishi va xalqaro raqobatbardoshligini ta'minlash vositasi sifatida qaraladi. Ularning fikricha, aksariyat innovatsiyalar muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga qaramay, uzoq muddatli istiqbolda innovatsiya qilmagan kompaniyalar bozordan chiqib ketadi. Shu bois mukammal va izchil innovatsion strategiya ishlab chiqish ko'plab tarmoqlar uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi [7].

V. Lendel, S. Hittmar va E. Siantova rahbarlarning innovatsiya jarayonlarini samarali tashkil etishda zamonaliv usullar va loyihalash vositalaridan foydalanishi, ularni boshqaruv va qaror qabul qilish jarayonlariga integratsiya qilishi korxonalarda innovatsion jarayonlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi, degan xulosaga keladi [8].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish strategiyalari tahlilida adabiyotlar sharhi, qiyosiy solishtirish, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish hamda iqtisodiy indikatorlardan foydalanilgan. Shuningdek, mantiqiy fikrlash, ma'lumotlarni guruhlash, sintez va induktiv-deduktiv usullar tadqiqotda asosiy ahamiyat kasb etgan.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi global iqtisodiy va texnologik muhitda aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish korporativ samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Innovatsiya jarayonlari nafaqat yangi mahsulot va xizmatlar yaratish, balki kompaniyaning bozordagi strategik pozitsiyasini mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish hamda aksiyadorlar va manfaatdor tomonlarning qoniqishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bois, korporativ boshqaruvda innovatsiya jarayonlarini boshqarishda nazariy va amaliy jihatlarning uyg'unligi zarur.

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish tizimi innovatsiya strategiyasini shakllantirish, moliyaviy resurslarni jalb qilish va ularni maqsadli taqsimlash, korporativ boshqaruv tizimining barcha darajalarida muvofiqlashuvni ta'minlash hamda iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini muntazam baholash va monitoring qilish kabi asosiy elementlarga tayanadi.

Bu jarayonlar faqat alohida yo'nalishlar sifatida emas, balki bir-biri bilan chambarchas bog'liq kompleks mexanizm sifatida amalga oshirilishi zarur. Innovatsiya strategiyasi jamiyatning umumiy rivojlanish konsepsiysi bilan integratsiyalashgan holda ishlab chiqilishi lozim, moliyaviy resurslarni jalb qilish jarayonida esa ichki mablag'lar, tashqi investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash manbalarini o'zaro mutanosib taqsimlanishi talab etiladi.

Shuningdek, korporativ boshqaruv tizimida aksiyadorlar, kuzatuv kengashi, ijroiya organlar va investorlar o'rtasida axborot almashinushi va strategik hamkorlikning uzuksizligi ta'minlanishi kerak. Iqtisodiy samaradorlikni baholash va monitoring qilish jarayoni real vaqt rejimida amalga oshirilib, innovatsiya jarayonlarining natijadorligi, ularning bozordagi raqobatbardoshligi hamda aksiyadorlar uchun yaratiladigan qo'shimcha qiymat darajasini baholashga xizmat qiladi (1-jadval).

**1-jadval. Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarishning asosiy elementlari<sup>1</sup>**

Nº	Asosiy elementlar	Tavsif	Korporativ rivojlanishdagi ahamiyati
1	<b>Innovatsiya strategiyasini shakllantirish</b>	Innovatsion yo'nalishlar, maqsadlar va ustuvor loyihalarni belgilash	Korxonaning uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyasini ta'minlaydi
2	<b>Moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlash</b>	Ichki mablag'lar, tashqi investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlovi manbalarini samarali jalb etish va taqsimlash	Innovatsiya jarayonlari uchun barqaror moliyaviy asos yaratadi
3	<b>Korporativ boshqaruv tizimining muvofiqlashuvi</b>	Aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va ijroiya organlar o'rutasida hamkorlik va ma'lumot almashish tizimini yo'liga qo'yish	Strategik qarorlar samaradorligini oshiradi va xavf-xatarlarni kamaytiradi
4	<b>Iqtisodiy samaradorlikni baholash va monitoring qilish</b>	Innovatsiya natijalarini doimiy tahlil qilish, samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash	Investitsiyalarning qaytarimi va innovatsiyalarning bozordagi raqobatbardoshligini ta'minlaydi

Mazkur jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini amalga oshirish va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan to'rtta asosiy yo'nalish tizimli ravishda aks ettirilgan. Har bir elementning o'ziga xos vazifalari va korporativ rivojlanishdagi o'rni mavjud.

Innovatsiya strategiyasini shakllantirish. Bu element innovatsion yo'nalishlarni aniqlash, ustuvor loyihalarni belgilash va ularni amalga oshirish yo'llarini ishlab chiqishni qamrab oladi. Uning ahamiyati shundaki, u korxonaning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini belgilab beradi va innovatsiya jarayonlarining korporativ maqsadlar bilan uyg'unlashuvini ta'minlaydi.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish va taqsimlash. Innovatsiya jarayonlarining muvaffaqiyati ko'p jihatdan moliyaviy ta'minotga bog'liq. Bu element ichki mablag'lar, tashqi investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlash manbalarini jalb qilish hamda ularni maqsadli taqsimlash orqali barqaror moliyaviy asos yaratishga qaratilgan.

Korporativ boshqaruv tizimining muvofiqlashuvi. Aksiyadorlar, kuzatuv kengashi va ijroiya organlar o'rutasida samarali hamkorlik hamda axborot almashish tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon strategik qarolarning sifatini oshiradi, korporativ xavf-xatarlarni kamaytiradi va innovatsiya jarayonlarini muvofiqlashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy samaradorlikni baholash va monitoring qilish. Innovatsiya jarayonlari amalga oshirilgandan so'ng ularning natijalarini muntazam tahlil qilish, samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash va zarur hollarda tuzatish choralarini ko'rish talab etiladi. Bu element investitsiyalarning qaytarimini ta'minlaydi va innovatsiyalarning bozordagi raqobatbardoshligini oshiradi.

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi



Ushbu jadvalning tahlili shuni ko'rsatadi, innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish faqat bir yo'nalish bilan cheklanib qolmasdan, barcha elementlarni bir-biriga bog'langan holda amalga oshirish orqali yuqori natija beradi (2-jadval).

#### 2-jadval. Taklif etilayotgan boshqaruv strategiyalari va kutilgan natijalar<sup>2</sup>

Nº	Strategiya yo'nalishi	Asosiy chora-tadbirlar	Kutilgan natija
1	Moliyaviy diversifikatsiya	Venchur kapital va grantlar jalb etish	Innovatsiya uchun barqaror moliyaviy manbalar
2	Kadrlar rivojlanishi	Malka oshirish kurslari, tajriba almashish	Mutahassislar salohiyatining oshishi
3	Texnologik modernizatsiya	Avtomatlashtirilgan tizimlar joriy etish	Ishlab chiqarish jarayoni samaradorligining o'sishi
4	Huquqiy islohotlar	Innovatsiyani qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik takliflari	Qonuniy asoslar barqarorligi
5	Korporativ madaniyat	Ichki motivatsiya tizimlari va innovatsiya forumlari	Xodimlar faolligi va yangilikka intilish ortadi

Ushbu jadvalda aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali yo'lga qo'yish uchun tavsiya etilayotgan asosiy boshqaruv yo'nalishlari, ularga mos chora-tadbirlar va kutilgan natijalar tizimli ravishda ifodalangan.

Moliyaviy diversifikatsiya. Innovatsiya loyihalarini barqaror moliyalashtirish uchun vechur kapital va xalqaro grantlarni jalb etish muhim. Bu yo'nalish moliyaviy xavf-xatarlarni kamaytiradi, mablag'lar manbalari diversifikatsiyasini ta'minlaydi va innovatsion rivojlanish uchun uzoq muddatli resurs bazasini yaratadi.

Kadrlar rivojlanishi. Malakali kadrlar innovatsiya jarayonlarining asosiy drayveri hisoblanadi. Malaka oshirish kurslari, stajirovkalar va tajriba almashish dasturlari orqali mutaxassislar salohiyatini oshirish, ularning zamonaviy innovatsion boshqaruv metodlarini qo'llay olish qobiliyatini kuchaytiradi.

Texnologik modernizatsiya. Avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli platformalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayoni samaradorligi oshiriladi, xarajatlar kamayadi va mahsulot sifati yaxshilanadi.

Huquqiy islohotlar. Innovatsiya jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi qonunchilik takliflarni ishlab chiqish va qabul qilish, huquqiy asoslarni barqarorlashtirish, intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilishni takomillashtirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash mumkin.

Korporativ madaniyat. Ichki motivatsiya tizimlari, innovatsiya forumlari va rag'batlantirish mexanizmlari orqali xodimlar faolligi oshadi, yangilikka intilish kuchayadi, tashkilot ichida innovatsion muhit shakllanadi.

Samaradorlikni baholash mezonlari. Innovatsiya jarayonlarini boshqarish strategiyalarining amalga oshirilishi quyidagi mezonlar asosida baholanishi mumkin:

- Innovatsion mahsulotlardan tushgan daromad ulushi;
- Investitsiyalar rentabelligi (ROI);
- Ilmiy-texnikaviy ishlanmalar soni;
- Yangi texnologiyalarni joriy etish tezligi;
- Aksiyadorlar va investorlar qoniqish darajasi (3-jadval).

#### 3-jadval. Samaradorlik mezonlari va ularning ahamiyati<sup>3</sup>

Nº	Mezon nomi	O'ichov birligi	Ahamiyati
1	Innovatsiya mahsulotlari daromadi	%	Yangiliklarning bozordagi ulushini ko'rsatadi
2	Investitsiya rentabelligi (ROI)	%	Innovatsiya sarflarining moliyaviy samaradorligini baholaydi
3	Ilmiy ishlanmalar soni	dona	Ilmiy salohiyat va patent faolligini aks ettiradi
4	Texnologiya joriy etish tezligi	oy/yil	Innovatsiyalarni amalga oshirish dinamikasi
5	Aksiyadorlar qoniqishi	Ball (1-10)	Investorlar va aksiyadorlar munosabatini baholashda muhim

Ushbu jadvalda innovatsiya jarayonlarini boshqarish strategiyalari bajarilgandan so'ng ularning natijadorligini baholash uchun asosiy mezonlar belgilangan.

2 Muallif ishlanmasi

3 Muallif ishlanmasi



Innovatsion mahsulotlar daromadi (%). Bu mezon innovatsion mahsulotlardan olingen daromadning umumiy aylanmadagi ulushini ko'rsatadi. U korxonaning bozordagi innovatsion salohiyatini baholashda muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Investitsiya rentabelligi (ROI, %). Innovatsiyaga qilingan sarf-xarajatlardan olinayotgan foyda darajasini ko'rsatadi. Bu mezon moliyaviy samaradorlikni tahlil qilishda asosiy indikator hisoblanadi.

Ilmiy ishlanmalar soni (dona). Korxona tomonidan amalga oshirilgan ilmiy-texnikaviy ishlanmalar va patentlar soni innovatsiya jarayonining ilmiy asoslanganlik darajasini aks ettiradi.

Texnologiya joriy etish tezligi (oy/yil). Yangi texnologiyalarni joriy etish vaqt qanchalik qisqa bo'lsa, korxona shunchalik tez raqobatbardosh afzallikka ega bo'ladi.

Aksiyadorlar qoniqishi (ball). Investorlar va aksiyadorlarning innovatsiya siyosati, moliyaviy natijalar va boshqaruv samaradorligidan qoniqish darjasini korxona barqaror rivojlanishi uchun muhim strategik mezon hisoblanadi.

Ushbu jadvallar tahlili shuni ko'rsatadi, boshqaruv strategiyalari (Jadval 2) va samaradorlik mezonlari (Jadval 3) o'zaro bog'liq tizimni tashkil qiladi: ya'ni, taklif etilgan strategiyalar amalga oshirilsa, mezonlar orqali ularning natijadorligi baholanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarishning asosiy sharti — korporativ strategiyalarning to'liq va integral tarzda amalga oshirilishi hisoblanadi. Korporativ strategiyalar innovatsiya jarayonlari samaradorligini ta'minlashda qator muhim vazifalarni bajaradi:

Resurslarning samarali taqsimlanishi va investitsiya yo'nalishi – yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish uchun zarur moliyaviy va inson resurslarini muvofiqlashtirish. Bu jarayonda korporativ strategiyalar loyihalarning o'zaro bog'liqligini, ularning bozor talablari va ichki imkoniyatlar bilan uyg'unligini ta'minlaydi.

Korporativ madaniyat va rahbariyatning strategik dunyoqarashi – innovatsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish, korporativ qadriyatlar va maqsadlarga mos qarorlar qabul qilish. Bu, shuningdek, rahbariyat va aksiyadorlar o'rtaida samarali muloqot va muvofiqlashtirishni talab qiladi.

Loyiha va jarayonlarni boshqarish usullari – innovatsiya jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil qilish va natjalarga muvofiq qaror qabul qilish. Bunda samaradorlikni baholash, resurslardan maqsadli foydalanish va biznes jarayonlarini raqamli texnologiyalar orqali avtomatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda korporativ innovatsiya jarayonlarini boshqarishda zamonaviy korporativ modellar va raqamli texnologiyalar qo'llanilishi muhim ekanligi aniqlandi. Masalan:

- Ma'lumotlarni tahlil qilish va prognozlashtirish vositalari korporativ qarorlar sifatini oshirishda asosiy rol o'yaydi, ular orqali bozor tendensiyalari va iste'molchilar talablari aniqlanadi.

- Sun'iy intellekt (AI) innovatsiya jarayonlari samaradorligini monitoring qilish va strategik qarorlar qabul qilishda yordam beradi, shuningdek, yangi texnologiyalarni joriy etish va loyihalar samaradorligini baholashda samarali instrument sifatida xizmat qiladi.

- Moliyaviy texnologiyalar (FinTech) investitsiyalarni boshqarish va resurslarni taqsimlash jarayonini avtomatlashtirish imkonini beradi, shu bilan birga korporativ moliyaviy hisobotlarni shaffof va tezkor qilishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, tadqiqotning tahlil qismi korporativ innovatsiya jarayonlarini boshqarishdagi asosiy xatarlarni ham ko'rsatdi. Ularni quyidagilarga bo'lish mumkin:

Moliyaviy xavflar – budjetni noto'g'ri taqsimlash, loyihalar samaradorligini baholashda xato, mablag'lar samarasizligi.

Kiberxavfsizlik va ma'lumotlar himoyasi – korporativ ma'lumotlar va raqamli platformalarning xakerlik va kiberxavflardan muhofazasi ta'minlanishi kerak.

Inson resurslari va kadrlar salohiyati – innovatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun malakali kadrlarning yetishmasligi.

Bozor va texnologiyalar rivojlanishiga moslashish qiyinchiligi – innovatsiya strategiyalari bozor talablari va texnologiyalar rivojlanish tendensiyalariga doimiy moslashtirilishi lozim.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, korporativ innovatsiya strategiyalari bozordagi raqobatbardoshlikni saqlash va samaradorlikni oshirish uchun doimiy ravishda qayta ko'rib chiqilishi va optimallashtirilishi zarur. Bu jarayonda asosiy e'tibor strategik rejalashtirish, monitoring va tahlil mexanizmlari, innovatsiya loyihalarini samarali boshqarish va resurslardan maqsadli hamda samarali foydalanishga qaratilgan.

Shu bilan birga, tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlar uchun innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish bo'yicha qator amaliyot yo'nalishlari aniqlandi:

- innovatsiya jarayonlarini korporativ maqsad va strategiyalar bilan uyg'unlashtirish;
- raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish orqali qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish;
- kadrlar va moliyaviy resurslardan maqsadli va samarali foydalanish;



- raqobatbardoshlikni ta'minlash va bozor talablariga moslashish uchun innovatsiya strategiyalarini doimiy ravishda tahlil qilish va takomillashtirish.

Natijada, tadqiqot natijalari aksiyadorlik jamiyatlari uchun innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish va korporativ samaradorlikni oshirish yo'nalishlarini aniqlaydi, shuningdek, rahbariyat va aksiyadorlar uchun amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatini yaratadi. Bu esa kompaniyalarning strategik maqsadlari va bozordagi raqobatbardoshligiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish korporativ samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashda asosiy omil hisoblanadi. Innovatsiya jarayonlari nafaqat yangi mahsulot va xizmatlarni yaratishga, balki kompaniyaning bozordagi strategik pozitsiyasini mustahkamlash, xarajatlarni optimallashtirish va steykxolderlar qoniqishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotda aniqlandiki, innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarishning asosiy sharti korporativ strategiyalarni integral va aniq tarzda amalgalash oshirishdir. Bu jarayonda quyidagi asosiy yo'nalishlar muhim ahamiyatga ega:

Resurslarning samarali taqsimlanishi va investitsiya yo'nalishi – yangi mahsulot va texnologiyalarni joriy etish uchun zarur moliyaviy va inson resurslarini muvofiqlashtirish.

Korporativ madaniyat va rahbariyatning strategik dunyoqarashi – innovatsiya tashabbuslarini qo'llab-quvvatlovchi muhitni shakllantirish va korporativ qadriyatlarga mos qarorlar qabul qilish.

Loyiha va jarayonlarni boshqarish usullari – innovatsiya jarayonlarini rejalashtirish, monitoring qilish, tahlil qilish va natijalarga muvofiq qaror qabul qilish.

Raqamli texnologiyalar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish – ma'lumotlarni tahlil qilish, sun'iy intellekt va FinTech vositalari orqali korporativ qarolarning sifatini oshirish.

Shu bilan birga, tadqiqot korporativ innovatsiya jarayonlari bilan bog'liq xatarlarni ham ko'rsatdi. Moliyaviy xavflar, kiberxavfsizlik, kadrlar salohiyati va bozor talablari bilan moslashish qiyinchiligi ushbu jarayonlarda asosiy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu omillar innovatsiya strategiyalarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish va optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar:

Korporativ strategiyalarni innovatsiya jarayonlari bilan uyg'unlashtirish – har bir loyihaning maqsadi va resurslari kompaniya strategiyasiga moslashtirilishi kerak.

Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish – elektron ovoz berish, korporativ dashboardlar, AI va Big Data vositalari orqali loyihalarni monitoring qilish va samaradorligini baholash.

Kadrlar salohiyatini oshirish va malakasiga sarmoya kiritish – innovatsiya jarayonlarini amalga oshirish uchun malakali kadrlar tayyorlash va motivatsiya tizimlarini takomillashtirish.

Innovatsiya loyihalarni doimiy tahlil va optimallashtirish – bozor va texnologiyalar rivojlanishiga moslashish uchun loyihalarning natijalari muntazam baholanishi lozim.

Korporativ madaniyatni rivojlantirish va steykxolderlar ishonchini oshirish – ochiq muloqot, shaffof hisobotlar va korporativ qadriyatlarning amalga oshirilishi orqali innovatsion tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash.

Ushbu takliflar amalga oshirilganda, aksiyadorlik jamiyatlari korporativ innovatsiya jarayonlarini samarali boshqarish, strategik maqsadlarga erishish va bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- Oktyabrevna, R. N. (2025, April). The role of innovation and technology in economic development and strategic management of joint-stock companies. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 4, pp. 41-44).
- Makhmudov, S. B., & Ismailov, A. R. (2024). The Importance of Strategic Corporate Management Practices in Joint-Stock Companies in the Capital Market. BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT, 3(9), 254-265.
- Oksana, S., Olha, P., & Iryna, K. THE COMPETITIVE POTENTIAL OF JOINT-STOCK COMPANIES AS A CONDITION OF STATE ECONOMY SECURITY. Право: теорія, філософія, проблеми реалізації, 99.
- Duric, Z., Maksimovic, R., & Adamovic, Z. (2010). Key performance indicators in a joint-stock company. African Journal of Business Management, 4(6), 890.
- Khrystyna Z. et al. Strategic management of the innovative activity of the enterprise //Journal of Optimization in Industrial Engineering. – 2021. – Т. 14. – №. Special Issue. – С. 95-103.
- Kuratko, D. F., Covin, J. G., & Hornsby, J. S. (2014). Why implementing corporate innovation is so difficult. Business Horizons, 57(5), 647-655.



7. Rhéaume L., Gardoni M. Strategy-making for innovation management and the development of corporate universities // International Journal on Interactive Design and Manufacturing (IJIDeM). – 2016. – T. 10. – №. 1. – C. 73-84.
8. Lendel, Viliam, Štefan Hittmár, and Eva Siantová. "Management of innovation processes in company." Procedia economics and finance 23 (2015): 861-866.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. № 7**

---

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**  
**tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)